

O'QUV JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMUY-METODIK ASOSLARI

Irmuxamedova Navruza Abdullajonovna

Guliston Davlat Universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
irnavroza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiya tushunchasi va uni o'quv jarayonida foydalanishning ilmiy-metodika asoslari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, texnologiya, psixologiya, ta'lif, axborot

KIRISH

Ta'lif-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari xam takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga osho'rish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lif-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladи.

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga osho'rildi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lif oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Dastlab bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o'rta sigacha «ta'lifda texnologiya» deb qo'llanylib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rta lida AQShda qo'llana boshlagan. Bunda «pedagogik texnologiya» va «ta'lif texnologiyasi» ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi.

Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma'nolari ham tegishlicha o'zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamonaviy ilmiy asoslangan yagona ta'rifi belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikrlar va xulosalar asoslab berildi.

50-yillar o'rta sidan 60-yillargacha «ta'lif texnologiyasi» ifodasi qo'llanilib, bunda programmalashto'rilgan ta'lifni nazarda tutilgan.(8)

70-yillarda «pedagogik texnologiya» ifodasi qo'llanilib, u avvaldan

loyixalashto'rilgan va aniq belg'ilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

1979 yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: «Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashto'rishning hamma jixatlarini qamrab oluvchi muammoni taxlil qilish va rejulashto'rish, ta'minlash, muammoning yechimini baholash va boshqarish uchun odamlar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks, integ-rativ jarayondan iborat...».(10)

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya bir jihatdan o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalab, uni ta'limdag'i, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiya degan nom o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharxlarini ko'rib chiqamiz:

Texnologiya (yunoncha techne- san'at, mahorat, malaka, logos- ta'limot)-degan ma'noni bildiradi.(9)

Texnologiya-biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at). (10)

Texnologiya-ishlov berish, axvolni o'zgarto'rish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi (V. M. Shepel) (9)

Pedagogik texnologiya-o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psusologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T. Lixachev).(10)

Pedagogik texnologiya-o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'limgan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllanto'rish jarayonining loyixasidir. (V.P. Bespalko).(7)

Pedagogik texnologiya-ta'limning rejulashto'rilaqan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I. P. Volkov).(9)

Ta'lim texnologiyasi-didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (M. Choshanov).

Pedagogik texnologiya o‘quv jarayonining o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V. M. Monaxov). (7)

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashto’rish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashto’rishning hamma jarayonlarini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO). (9)

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalilaniladigan barcha shaxsiy, instrumentli va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisini va amal qilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

Pedagogik texnologiya bu so‘zsiz rioya qilish eng yuqori natijani kafolatlaydigan ko‘rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo‘lib, ularning amaliy axamiyatidan iborat (V.Y. Pityukov). (7)

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdo’rish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga kelto’rishdir (Sakomoto). (10)

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o‘zlashto’rish darajasiga erishishdan iborat bo‘lib, uni tatbiq etishni xisobga olgan holda ta’lim jarayonini ilgaridan loyixalashto’rishda namoyon bo‘ladi(U. Nishonaliyev).

Pedagogik texnologiya — bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga lmuayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan ;shaxs sifatlarini shakllanto’rish jarayonidir (N.Saydahmedov). (8)

Pedagogik texnologiya — bu jamiyat extiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘nal-to’rilgan o‘quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida taxsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir (B.Ziyomuhamedov). (8)

Pedagogik texnologiya bu — obyektiv, moddiy jarayon. Agar biz o‘quv-tarbiya jarayonidan uning obyektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, ey!g kamida uning tafsilotiga ega bo‘lamiz (V.K. D’yachenko). (10)

Pedagogik texnologiya — bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion)

yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'cho'rilgan tasviri, ta'lif jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L. Farberman). (6)

Yuqorida kelto'rilgan ayrim ta'riflarning o'zaro har xillidan ko'rindan, pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psihologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

ASOSIY QISM

Hozirgi ta'lif-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'naliishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lif-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson xayoti uchun zarur axborotlarni avlod-dan avlodga uzatish amalga osho'rildi.

Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashto'rish, saqlash va boyitishdan iborat. Shundan hozirgi insoniyat sivilizatsiyasini axborot sivilizatsiyasi deb ataladi.

Shu nuqtai nazardan sivilizatsiya tushunchasiga berilgan ta'riflardan biri quyidagicha: «Sivilizatsiya-axborotni toplash, taxlil hilish va foydalanish xamda atrof-muxit va o'zi haqida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga qodir bo'lgan moddaning yuqori turg'un holatidir».

Bu ta'rifdan axborotni avloddan avlodga uzatishning, ya'ni ta'lif-tarbiya ishining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi ko'rindan turibdi. YA'ni ta'lif-tarbiya siviliza-sianing mavjudlik sharti hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan «sivilizatsiyaning bosh belgisi axborotni toplash, mavhum (abstrakt) tahlil qilish (jonivorlar bunga qodir emas) va undan o'z turini, o'z jamoasini uzoq saqlash uchun foydalanishdan iborat». Bundan axborotni toplash, tahlil qilish va undan foydalanishning shakl, usul va vositalarini takomillashto'rib borish zarurligi va buning zamirida pedagogik texnologiya yotishi tushuniladi.

Axborotlarning inson xayotidagi ahamiyatini aniqlashga qiziqish ortishi tabiiy. Bu xaqdagi ta'riflardan biri quyidagicha: «Axborot — bu sezgi a'zolarimizni tashqi olamga moslashto'rishimiz jarayonida biz undan oladigan mazmun belgisi» (N.Viner). Bu ta'rif tirik organizmning tashqi muhitdan axborotni idrok qilishiga doir xususiy holga tegishli.

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning eng qisqa va umumillashto'rilgan ta'rifini quyidagicha deb xisoblashimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllanto'rish faoliyati.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko'lamlari, serqirra tushuncha ekanligini xisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini taklif qilishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya-axborotlarni o'zlashto'rish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'nomazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim metodlari, usullari, yo'llari xamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-usubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik jarayonni takomillashto'rish, uni o'quvchi shaxsiga yo'nalto'rishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: Hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quvchi faoliyatini faollashto'rish va jadallashto'rish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jixatdan takomillash-to'rish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashto'rilgan, individuallashto'rilgan, das-turlashto'rilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruxli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashto'rilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga osho'rishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanto'rish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (o'quv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda mualiflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari xam mavjud.

Hozirda pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilganlardan tashqari tegishli mutaxassislar tomonidan tajriba sinovlar olib borilayotgan boshqa yo'nalishlari ham mavjud.

Pedagogik texnologiya jarayonini o‘rganishning soddalashto’rilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

—tushunto’rish — axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo‘llab, tushuntiruvchining o‘zi tushungan darajada boshqalarga yetka-zish faoliyatidan iborat jarayon;

—tushunish — axborotning ma’nomazmunini idrok qilish, undan ko‘rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish;

—o‘rgatish — axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini o‘rgatuvchining o‘zi o‘rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo‘llab amalga osho’rish faoliyatidan iborat jarayon;

—o‘rganish — axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallash;

—o‘zlashtirish — tushunish, o‘rganish orqali axborotning ma’no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘lishi.

O‘zlashto’rish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

1) o‘rgatilgan bilim, ko‘nikmalarni to‘g‘ri takrorlash.

2) ularni amaliy faoliyatda qo‘llash; ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish;

3) ularni ijodiy taxlil qilish, qiyoslash, umumlashto’rish, xulosalar chiqarish asosida takomillashto’rish faoliyatini amalga osho’rish imkoniyatiga ega bo‘lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida xam birdek qo‘llaniladigan va ta’lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida xal qiluvchi axamiyatga ega bo‘lgan asosiy tarkibiy elementlar so‘zlash, ko‘rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog‘liqlikda amal qiladi.

Mashqlar o‘qish, yozish, so‘zlash, fikrslash, xisoblash, turli harakatlar bajarish, qurish-yasash, chizish, bo‘yash, musiqa chalish, qo‘sinq aytish, misol, masala, testlar yechish, kompyuter bilan ishslash, asboblar, stanoklar, boshqa texnika vositalari bilan ishslash, vdaterialarga turli ishlov berish, dalada, fermada, qurilishda ishslash, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarish, jismoniy va sport mashqlari, ishchanlik o‘yinlari, musobaqa, ko‘rik, tanlov va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulot vaqtining ko‘proq qismi mashqlar bajarishga sarflanishi albatta yaxshi natijalar beradi.

O‘qituvchi faoliyatidagi rahbarlik va nazorat alohida masalalar bo‘lib, har bir mashg‘ulotning maqsad va mazmu-niga muvofiq amalga osho’riladi.

Nazoratning eng haqiqiy va to‘g‘ri turi o‘z-o‘zini nazorat qilish xisoblanadi.

Bu pedagogik texnologiyaning barcha ishtirokchilari, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilarga tegishli. Lekin ma’lumki, ko‘pincha odamlarda o‘z-o‘zini qat’iy nazo-rat qilish odatga aylanmagan, buning uchun ko‘p hollarda iroda yetishmaydi.

Shuning uchun o‘quvchi faoliyatini nazorat qilish o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan xamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Bunda nazorat uchun haddan ortiq vaqt sarflamaslikka e’tibor berish, o‘qituvchining asosiy ish vaqtini nazorat uchun emas, o‘quvchilarga ko‘proq bilimlar berishga sarflanishiga erishish lozim.

Agar o‘quvchilarning o‘qish motivlari, mashg‘ulotlarning boshidan oxirigacha diqqatni jamlashi, eslab qolishi, xotirada saqlashi va o‘rganganlarini amalda mustaqil qo‘llay olishi kabi ko‘rsatikichlari muntazam ravishda masalan, 100 foiz bo‘lganda edi, ana shundagina ularning o‘zlashto’rishlarini nazorat qilishga vaqt sarflamaslik mumkin bo‘lar edi.

Lekin amalda bunday emasligi hammaga ma’lum, shu sababdan hozirda nazoratning reyting usulini yanada takomillashtirgan holda amalga joriy qilinmoqda.

Mavjud pedagogik texnologiyalar aslida yuqorida aytilgan so‘zlash, ko‘rsatish, mashqdan iborat uchta tarkibiy elementning har turli kombinatsiyalarini tashkil qiladi. Ular bir-biridan ta’lim-tarbiyaning ayrim yo‘nalishiga, mazmuniga va usullariga alovida e’tibor berilgani xamda unga muvofiq maqsadlarga qaratilgani bilan farqlanadi.

XULOSA

Pedagogik texnologiya — bu o‘z oldiga ta’lim shakllarini optimallashto’rish vazifasini qo‘yuvchi, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashto’rish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o‘zaro munosabatlarini xisobga olgan holda yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya-ma’lumotlarni o‘zlashto’rish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o‘zlashto’rish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta’lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda

qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. -Toshkent. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "PF-5847-son 2019-yil 9-oktabr. -Toshkent. <https://lex.uz/docs/-4545884>

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. «O'zbekiston», NMIU, 2017. – 488 b.

4. Djumanov J.X., Miryusupov Z.Z. Kompyuter tarmoqlari: O'quv qo'llanma, Muhammad Al-Xorazmiy nom. TATU. - T. : Aloqachi, 2020. - 144 b.

5. K.T.Abduraشidova, Н.А.Ирмуҳамедова, С.Р.Ботиров. "Учебное пособие для выполнения лабораторных работ по дисциплине Компьютерные сети". -Ташкент, ТУИТ, 2022. 116 страниц.

6. Ishmuxamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta'linda innovatsion texnologiyalar (ta'lif muassasalarini pedagog-o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.

7. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni ukitish va ishlab chikarish ta'limi». T.: «O'qituvchi», 1996.

8. Mirsaidov K., Xidirov I., Choriyev R. «Ishlab chikarish ta'limi». T.: «Ukituvchi», 2002.

9. Munavvarov A.. "Pedagogika". Toshkent: "Ukituvchi" 1997 y.

10. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2003. -172b.